

QOQIO'TDOSHLAR- ASTERACEAE L. OILASINING AYRIM DORIVOR
VAKILLARI

Akbarova Muxayyo Xusanovna

Karimjonova Umidaxon Akmaljon qizi

Farg`ona davlat universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qoqio'tdoshlar- Asteraceae L. oilasi Achillea L. turkumining ayrim dorivor vakillari bioekologiyasi haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar. *Asteraceae, Achillea, botanik-geografik rayon, dorivor o'simlik.*

Абстракт. В статье представлены сведения о биоэкологии некоторых лекарственных представителей семейства *Achillea L.* семейства *Asteraceae*.

Ключевые слова. *Asteraceae, Achillea, ботанико-географическая область, лекарственное растение.*

Abstract. The article presents information on the bioecology of some medicinal representatives of the *Achillea L.* family of the *Asteraceae* family.

Keywords. *Asteraceae, Achillea, botanical-geographical region, medicinal plant.*

Dunyodagi iqlim o'zgarishlari, antropogen, biotik va abiotik omillar ta'siri natijasida ekotizimlarda sodir bo'layotgan transformatsiya jarayonlari mahalliy biologik xilma-xillik, xususan, turlar tarkibini aniqlash hamda o'simlik dunyosi ob'ektlarini biohujjatlashtirish tadqiqotlariga yanada katta e'tibor qaratish lozimligini talab etmoqda. Bioxilma-xillikning global baholash UNEP ma'lumotlariga ko'ra, «... bugungi kunda turli omillar natijasida 30 000 dan ortiq o'simlik va hayvon turlari yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi, oxirgi 400 yil ichida 654 o'simlik turlari yo'qolib ketgan». Shu nuqtai nazardan, bioxilma-xillikni o'rganish, mahalliy floralardagi turlar tarkibini ro'yxitga olish, kamyob turlarning zamonaviy holatini aniqlash va saqlab qolish zamonaviy biologyaning dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda jahondagi zamonaviy floristik tadqiqotlar, ayniqsa, o'ziga xos endem va relikt turlarning boy tarkibiga ega mintaqalarning taksonomik xilma-xilligini ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy metodlari yordamida aniqlash, flora genezisi va endemizm fraksiyalarning shakllanish markazlarini o'rganishni taqozo etmoqda. Bu o'rinda Tog'li O'rta Osiyo provinsiyasining Farg`ona-Oloy okrugi Sharqiylar Oloy rayoni Oloy tizmasi hamda Turon

provinsiyasining Markaziy Farg`ona okrugi tarkibiga kiruvchi Qayroqqum-Yozyovon rayonlari ham bundan mustasno emas. Bu hudud taksonomik xilma-xillikning yuqoriligidagi, kamyob, endem hamda relikt turlarga boyligi bilan ajralib turadi. Uning florasi tarkibini aniqlash, botanik-geografik rayon sifatida chegaralarini aniqlash, kamyob va yo‘qolib ketayotgan, endem turlar populyasiyalarining zamonaviy holatini baholash, floraning ma’lumotlar elektron bazasini tuzish O‘zbekiston milliy florasidegi o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz rang-barang yovvoyi o‘simliklardan insonlar sog‘ligi manfaati yo‘lida oqilona foydalanish va ularni kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish Respublika olimlari va keng jamoatchilik oldidagi eng muhim dolzarb vazifalardan biridir. O‘zbekistonda xalq tabobati va ilmiy tibbiyotda ishlatiladigan shifobaxsh o‘simliklarning tabiiy boyligi jihatidan Asteraceae L. oilasi salmoqli o‘rinni egallaydi.


Qoqio`tdoshlar- Asteraceae L. oilasi Achillea L. tarkumining yovvoyi va shifobaxsh o‘simliklari xomashyo nuqtai nazaridan hanuzgacha yetarli darajada o‘rganilmagan. Inson o‘z ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan ko‘pgina narsalarni tabiiy holda o‘sadigan o‘simliklardan olib kelayotganligi qadimdan ma’lum.

Eng ko‘p dorivor o’simlik turlariga ega bo‘lgan, oilalardan biri Qoqio`tdoshlar- Asteraceae L. oilasidir. Qoqio`tdoshlar - Asteraceae oilasiga kiruvchi Bo‘ymadaron (Boshog’rio’t) - Achillea santolina L. ko‘p yillik, poyasi bir nechta shoxlangan, tik o’suvchi, balandligi 15 - 30 sm. Barglari och yashil kulrang, barglarini oxirgi qirqimi 1-1.5·2mm, savatchasi teskari tuxumsimon bo‘lib, qalqonsimon gullarining uzunligi 2 sm, tilchali gullari sariq rangda 5-6 tadan joylashgan. Urug'lari kulrang - qora, uzunchoq ponasimon, uzunligi 1.25-2 mm. May-iyulda gullab, iyun-avgustda urug'lari yetiladi. Tog' old, cho'l mintaqalarining taqir yerlarida, ariqlar atrofida begona o‘t sifatida keng tarqalgan. Tarkibida efirli moylar, kamfora, pinen kabi moddalar saqlaydi. Xalq tabobatida yiringli yaralar va zamburug‘li yaralarni davollashda keng ishlatiladi.

Olib borilgan tajribamiz shundan iboratki, petri kosachalarga filtr qog’oz joylab, Achillea santolina L. va A. biebersteinii urug'laridan 100 donadan olib ekildi va xona haroratidagi iliq suv bilan 1 marotaba sug'orildi. Oradan 3 kun vaqt o‘tib, dastlab Achillea santolina L. so‘ng A. biebersteinii urug'lari unib chiqdi.

Xulosa qilib aytganda, bu dorivor o’simliklarni unib chiqishi uchun normal harorat 17 C gradusdan 20 C gradusgacha bo‘lganda 2-3 kunda unib chiqadi. Oziqa muhitni asosan, undirish omili suv hisoblanadi. Bu

dorivor o'simliklarni bir biriga solishtirganimizda A. biebersteiniining unuvchanligi Bo'yymadoron (Boshog'rio't) - Achillea santolina L. ga nisbatan ancha yuqori.



1-rasm. A. santolina urug`larining laboratoriya sharoitida unuvchanligi



2-rasm. A. biebersteinii urug`larining laboratoriya sharoitida unuvchanligi
Ma'lumki dunyo miqyosida farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining taxminan 40% i dorivor o'simliklar xomashyosidan tayyorlanmoqda. Ko'pchilik mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika sanoatini jadallik bilan rivojlanishi bunday korxonalarning dorivor o'simliklar xomashyosiga bo'lgan talabni keskin ortishiga sabab bo'lmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, tabiiy holda o'suvchi dorivor o'simliklar zahiralarining chegaralanganligi tufayli farmatsevtika sanoati korxonalarning dorivor o'simliklar xom-ashyosiga bo'lgan talabini, asosan, dorivor o'simliklar o'stirish orqaligina qondirish mumkin.

Shundan kelib chiqqan holda tabiiy holda o'suvchi dorivor o'simliklarning ham xomashyo zahirasi chegaralangan bo'lib, ularni muhofaza qilish, bioekologik xususiyatlarini o'rganish, xom-ashyo zahirasidan to'g'ri foydalanish va ko'paytirishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biridir. Shuning uchun O'zbekistonda farmatsevtika sanoatining ehtiyojlarini dorivor o'simliklar xom-ashyosi bilan ta'minlash, mahalliy florani yangi introdutsent o'simlik turlari bilan boyitish va ularni yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish zarur.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Афанасьев С. Род тысячелистник Achillea L. //Флора СССР. - М.; Л., 1961.-Т.26.-С. 70-104.
- 2.Иванова-Парийская М.И. Дикорастущие лекарственные растения Узбекистана. Таш. 1949. 67 стр.
- 3.Кучеров Е.В., Мулдашев А.А. и др. Тысячелистник обыкновенный //Биология и экология основных видов полезных растений на Южном Урале. -М.: Наука, 1993. -С. 85-92.